

O'ZBEK TILI LINGVOMADANIY POTENSIALINI KO'RSATISHDA Q'XSHATISHLARNING AHAMIYATI

*Tursinbayeva Shaxloxon Alimbayevna, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU tadqiqotchisi*

THE IMPORTANCE OF ANALOGIES IN SHOWING THE LINGUISTIC AND CULTURAL POTENTIAL OF THE UZBEK LANGUAGE

*Tursinbaeva Shakhlokhon Alimbaevna, researcher of Toshlyume
State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher
Navoi*

ЗНАЧЕНИЕ АНАЛОГИЙ В ПОКАЗЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОГО ПОТЕНЦИАЛА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

*Турсинбаева Шахлохон Алимбаевна, научный сотрудник
Ташкентского государственного университета узбекского языка
и литературы имени Алишера Навои*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy aspektida o'r ganilgan. Xususan, o'zbek tilida o'xshatishlarning milliy o'ziga xosligi bevosita o'zbek xalqining ijtimoiy, madaniy va maishiy hayotini ko'rsatib beruvchi, o'zbek xalqiga xos xarakter, xislatlarning ifodalanishi hamda adabiy-badiiy tilda aks etishini ko'rsatuvchi bu lingvomadaniy birlik imkoniyatlarini Muhammad Alining "Ulug' saltanat" asari asosida jamlangan misollar orqali ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvomadaniyat, o'xshatish, turg'un o'xshatishlar, novator o'xshatishlar, potensial.*

Аннотация: В данной статье лингвокультурные особенности сравнений изучаются в сравнительном аспекте. В частности, национальная специфика сравнений в узбекском языке непосредственно отражает общественную, культурную и бытовую жизнь узбекского народа, выражение характера и особенностей узбекского народа и показывает, что она находит свое отражение в литературно-художественном творчестве. Язык направлен на раскрытие возможностей языкового и культурного единства на примере «Великого султаната» Мухаммеда Али.

Ключевые слова: лингвокультура, сравнение, устойчивые сравнения, инновационные сравнения, потенциал.

Abstract: *In this article, the linguacultural features of comparisons are studied in a comparative aspect. In particular, the national specificity of comparisons in the Uzbek language directly reflects the social, cultural and everyday life of the Uzbek people, the expression of the character and characteristics of the Uzbek people and shows that it is reflected in literary and artistic creativity. The language is aimed at revealing the possibilities of linguistic and cultural unity using the example of the "Great kingdom" of Muhammad Ali.*

Key words: *linguistic culture, simile, stable similes, innovative similes, potential.*



e-mail:
shaxloxontursinbayeva@gmail.com

KIRISH. Tilshunoslikda shunday hodisalar mavjudki, ular turli yondashuvlar asosida tadqiq etilsa ham, ma'lum jihatlari sirligicha qolaveradi. Chunki ular til sistemasida yashar ekan, ularning sistem-struktur tabiaty yagona tadqiqot orqali olib berilishi mumkin, lekin nutqdagi cheksiz “tovlanishlari”, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik qirralari alohida tadqiqotni talab etadi. Til sistemasidagi shunday sirli va murakkab hodisalardan biri o'xhatishlar hisoblanadi.

O'xhatishlar — har bir xalqning milliy-madaniy boyligi bo'lib, ular o'zida milliy dunyoqarash, predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir.

Badiiy matnda o'xhatishlardan foydalanish bu yaratilayotgan badiiy asar talabi va tabiiy jarayondir. Ammo badiiy matnning quroli badiiy so'zligini hisobga olsak, bu har qanday so'z emas, balki qahramon yoki obyektning ruhiy-ijtimoiy, jismoniy, tasviriy holatini “o'qirman” ko'z o'ngida jonlantirishdagi muhim omillardan biridir. Tadqiqot mavzusi sifatida Muhammad Alining “Ulug' saltanat” asaridan to'plangan o'xhatishlar ham turg'un, ham novator o'xhatishlar bo'lib, asar qadr-qimmatiga o'z estetik jozibasi va xalqmizning dunyonи o'z ma'naviy qarashlari orqali qanday idrok etishi, olamning lisoniy manzarasini tilda qanday holatda aks ettirishini bo'rttirishlarsiz va o'zbek tilining boy ichki imkoniyatlari orqali yozuvchi qalamga olgan.

ADABIYOTLAR TAHЛИILI. Ta'kidlash joizki, ma'lum bir millatning fikrlesh tarzi va usulini olib berishda lingvomadaniy birliklar sifatida paremiologik birliklar qatori *o'xhatish, metafora, metonimiylar* alohida o'ringa ega ekanligi ko'plab lingvokulturologik adabiyot va tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan.

Turg'un o'xhatishlar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan dastlabki tadqiqotlar rus tilshunosligida

L.G.Boyko va Yu.Feninlar tomonidan tadqiq qilingan va ularning baho munosabati hamda milliy-madaniy konnotatsiyasi aks etgan madaniy markerlangan mundarijasini yaratish bilan boshlangan[1,13]. O'zbek tilshunosligida R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, D.Xudoyberganova va N.Mahmudovlar¹ izlanishlarini keltirishimiz mumkin. N.Mahmudovning o'zbek tili turg'un o'xhatishlari haqidagi maqolalari o'zbek tilshunosligida o'xhatishlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganishga qaratilgan dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi. Shuningdek, N.Mahmudov va D.Xudayberganovalar tomonidan tuzilgan “O'zbek tili o'xhatishlarining izohli lug'ati”da tilimizdagи 500dan ziyod o'xhatishlarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlari leksikografik jihatdan yoritib berilgan.

Lingvokulturologik birliklar tadqiqiga bag'ishlangan ishlardan biri D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasidir. Ishning IV bobida aspektlar birma-bir izohlanadi va eng muhim aspekti sifatida esa o'xhatish va metaforalarni ilmiy jihatdan asoslangan misollar bilan tushuntiradi[2]. Chunki matnda keltirilgan o'xhatishlar madaniyatni yaqqol aks ettiradigan vosita bo'lib qolmay, madaniyatlarni namoyon etuvchi hodisa hamdir.

Mazkur masalaga — o'xhatishlarga oid oxirgi izlanishlardan biri F.Usmonovning “O'zbek tilidagi o'xhatishlarning lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertasiysi bo'lib, o'xhatishlar keng qamrovda o'rganish obyektiga aylantirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'xhatishlar – tildan foydalanish jarayonida insoniyat ma'lum bir voqeа-hodisalarni izohlash uchun turli so'z va jumla, ibora hamda qiyoslardan unumli foydalanib kelishgan. Shu zaylda nutqimizda o'xhatishlar

¹ Кўнгурев Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўҳшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.; Худайберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. ...канд.филол.наук. –Ташкент, 1989. – 127 с.

Махмудов Н. Ўҳшатишлар – образли тафаккур махсуси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – №3.
– Б. 19-24; Махмудов Н. Ўҳшатишлар ва миллий нигоҳ / Тил тилсими тадқики. –Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. –Б. 166-175.

vujudga kelgan. Insonlar o‘zлari uchun begona yoki hali noma‘lum bo‘lgan vaziyatni tushuntirish uchun doimo biror predmetga qiyoslash va yoki o‘xhatishga ehtiyoj sezadi. Bu individ nutqining mukammallahishi va rivojlanishiga olib kelgan. Shuning uchun ham badiiy asarlarda xoh u nazm

bo‘lsin, xoh u nasr, qalamnavis va shoirlar o‘xhatishlardan keng foydalanishadi. O‘xhatish jarayonida ularni yuzaga keltiruvchi grammatik vositalar ishtiroki muhim ahamiyatga egadir. Ular quyidagicha:

<i>Affikslar vositasida</i>	<i>So‘zlar vositasida</i>
-day(-dek), - simon, -ona, -omuz, -namo, -larcha, -chasiga, -dan.	sifat (o‘xshash, teng), ko‘makchi (kabi, singari, qadar), bog‘lovchi (go‘yo, go‘yoki), olmosh (o‘zi), ravish (aynan)
<p>1. Temurbekning o‘zi bir guruh bahodirlar ichida yulduzlar o‘ramidagi oydek balqib yo‘lga tushdi.</p> <p>2. O‘tirgan joyida yumaloq buyumday bo‘ldi-qoldi.</p> <p>3. ...ko‘p sa’y-harakatlar ko‘rgizildi, ammo barchasi toshga yoqqan yomg‘irdek benaf ketdi.</p> <p>4. Malaksiyo</p>	<p>1. Tabiatи bahor havosi kabi o‘zgaruvchan.</p> <p>2. Dunyo - odam shaklidagi ilon va chayonlarga to‘la oltin sandiqning naq o‘zi ekan.</p> <p>3. Dastavval, ikki tomon uzoqdan o‘q otishib, go‘yo bir-birlarini qitiqlab sinashganday bo‘ldirlar.</p> <p>4. Bamisli yangi ochilgan atirgulday toza</p> <p>5. Xuddi oqqush suzib ketayotganday</p> <p>6. Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg‘alari tubida pinhon, sirdan esa limmo-lim to‘lib oqayotgan Jayxun singari sokin...</p>

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” romanida **-day, -dek** affikslaridan keng foydalangan, hatto, so‘z vositasida yasalgan o‘xhatishlar bilan solishtirganda ham, deyarli affiksli o‘xhatishlarning barchasi shu qo‘shimchalar bilan yasalgan. Bundan ko‘rinadiki, badiiy adabiyotda va tilda o‘xhatishlarni hosil qilishdagi bu affiksal vositalar eng ko‘p foydalilaniladigan unumli qo‘shimchalardir.

Lingvomadaniyatshunoslikning funksiyasi millat madaniyatini namoyon etuvchi til birliklarining milliy-madaniy mazmunini oolib berish hamda uning tili orqali madaniy streotiplarini aniqlash va shu bilan birga ushbu madaniyatning qadriyatlar tizimini idrok etishdir. “S.V.Ivanov va Z.Z.Chenisheva streotiplarning etnomadaniy konnotatsiyasi, asosan, metaforik va metonimik ko‘chimlar, o‘xhatishlar, iboralar hamda maqollarda ko‘rinadi deb hisoblaydi”[1,11].

Bu o‘rinda olamning konseptual manzarasini ijodkor o‘zi yaratayotgan badiiy asarda olamning lisoniy

manzarasi sifatida ifoda etishi kerak. Sababi, olamning konseptual manzarasi tushunchasi lisoniy manzarasiga qaraganda keng qamrovli tushunchadir. F.Usmonov ta’biri bilan aytganda, “Olamning lisoniy manzarasi uning konseptual manzarasiga teng emas, uning tilda ifoda topgan qismidir. O‘z ifodalovchisiga ega bo‘lish esa shu konseptning millatning amaldagi kommunikatsiyasida tutgan o‘rni bilan belgilanadi. Olamning konseptual manzarasi uning lisoniy manzarasiga nisbatan keng va serqirradir. Chunki konseptual manzara yaralishida tafakkurning turli, jumladan, noverbal shakllari ishtirok etadi. Milliy til, aniqrog‘i, uning egasi konseptual manzarani milliy-madaniy libosga o‘raydi”[1,10-11].

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, romanda 4 xil o‘xhatishlardan keng foydalilanigan va bu o‘xhatishlarda xalqning milliy streotiplarini hamda qadriyatlarini ko‘rishimiz mumkin:

1.	<i>Zoonim bilan bog‘ liq o‘ xshatishlar;</i>	<p>Burgutday qanot bog‘lab uchsalar kerak! Itday quvib haydamoq Haybati sherdai Yuraklari qafasdagи qushday potrardi. Begunoh qo‘zichoqlarday omonatgina yotishgan Chigirtkaday boshingni uzib tashlardim, ablah! ...bamisolи o‘ljasiga tashlangan qoplonday haligi odam ustiga o‘zini otdi. Musichalarday mungrashib Kin-u adovat daryosining nahang balig‘i Zindachashm-opardiy o‘sha daryoning o‘zida g‘arq bo‘ldi. Onasining pinjiga qisingan qulunday... qulog‘iga nimalarnidir shivirlay boshladi Ey buqalamuni kajraftor dunyo! Zindachashm-opardiyning kulgisi, kulgi emas, ko‘proq qafasga tushib qolgan sher bolasining alamlı nidosiga o‘xshab ketdi. Yurakni kattaligini ko‘ringiz! Naq otning kallasi-ya Zarg‘aldoqday tilda bor-u, dilda hech narsa bo‘lmaydi To‘rg‘ayday tili tutilib qoladi Bo‘riday shiddatli Yo‘lbarsday kuchga to‘lgan Ayg‘irday chopag‘on No‘xtalangan otday aqli to‘lishdi</p>
2.	<i>Osmon jismlari va hodisalar bilan bog‘ liq o‘ xshatishlar</i>	Xonzoda xonim o‘zini o‘sha osmonga intilgan , undan bahra olgan, mehri bilan yashnagan yerday tutmakka rozi! Husni ortib, oyday balqib ko‘rinar. ...ko‘p sa‘y-harakatlar ko‘rgizildi, ammo barchasi toshga yoqqan yomg‘irdek benaf ketdi. Tim qora hilol qoshlari o‘ziga yarashgan Yulduzdek yarq etmoq Yer to‘sak, Osmon ko‘rpa bo‘libdi.
3.	<i>Fitonimlar bilan bog‘ liq o‘ xshatishlar;</i>	Chirmovuqday chirmashingiz O‘ng-u so‘lda yana ham quyiroqda har joyda qorovullarning olachuqlari ko‘klam yomg‘iridan so‘ng bodrab chiqqan qo‘ziqorinlarday sochilib yotardi. Yomg‘ir qatralaridek behisob, daraxt barglaridek beedad qo‘shin Surx novdaday nozik qo‘llarini Iqbol bo‘stonining guli Anorday ko‘ksidan Chiroyli ekilgan daraxtlar , sarkardasini qarshi olgan navkarlarday saf tortishgancha, rang-barang gullar esa xushchaqchaq, ochilishib-sochilishgancha kutib olardi . Yaproq yozmoqqa shaylangan chechak , ochilib o‘z ko‘rk-u jamoli bilan olamni hayratga solmakni diliga tukkan bir g‘uncha .

4.	<i>Diniy qarashlar bilan bog‘liq o‘xshatishlar.</i>	<p>Sendek bevafo iblisning jazosi faqat o‘lim</p> <p>Hur qizlarday</p> <p>Bilqisi zamona</p> <p>Jannatday</p> <p>Behishtdek</p> <p>Hurliqoday</p> <p>Malaksiymo</p> <p>Parilardek g‘oyib bo‘ldi</p> <p>Farishta kabi suyuklik</p>
----	---	--

Yuqorida keltirilgan o‘xshatishlar orqali shuni ta’kidlashimiz mumkinki, turkiy xalqlar qadimdan ko‘chmanchi bo‘lganligi sababli “**ot**” zoonimini alohida qadrlashgan va buni ko‘plab nutqni yaratish va mukammallashtirishdagi vositalar, ya’ni til birliklarida (*ibora, maqol, matal va o‘xshatishlar*) o‘z ifodasini toptirganlar. O‘xshatishlar ichida “**qo‘zichoq va qulun, qo‘y va buzoq**” bilan aloqador qiyoslashlar ham mavjud. Bular xalqning qadimdan chorvachilik bilan shug‘ullanganligini bildirgan va tilga bevosita singib ketgan, natijada bugungi kungacha bunday o‘xshatishlar tilda saqlanib qolgan, shu bilan birga unumli foydalaniadi.

“**Bo‘ri**” zoonimi barcha turkiy xalqlar uchun kult darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bo‘ri doimo kuchqudrat ramzini ifodalab kelgan. Lekin barcha xalqlarda ham bunday emas. Masalan, rus, fransuz va inglizlarda “**bo‘ri**” zoonimi qonxo‘rlik va ochko‘zlik ramzini bildiradi.

- 1) Eat like a wolf – bo‘ridek yemoq;
- 2) Greedy as a wolf – bo‘ridek yeb to‘ymas;
- 3) Une faim de loup – bo‘rining ochligi [3,16].

Bu shundan dalolatki, o‘xshatishlar yaratilish jarayonida baho semasiga alohida ahamiyat beriladi. Baholash jarayonida salbiy yoki ijobiy baho berish individning ongidagi madaniy stereotiplarga uzviy bog‘liqidir. Ya’ni “...bunda millatning qadriyatlari, asrlar davomida shakllangan madaniy me’yorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyoslash amaliyotida inson baho obyekti bo‘lganda ham, baho subyekti bo‘lganda ham mezon uning o‘zidir. Bu inson olam uzvlariga baho berayotganda har qanday holatda o‘zining ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari va boshqa qarashlari asosiy mezon vazifasini o‘tashini anglatadi. Shunday qilib, til belgisi semantikasida reallashgan baho munosabati madaniy

konnottatsiyani aks ettiradi”[1,16]. O‘xshatishlarning, asosan, ijobiy yo salbiy konnotatsiyasini aniqlashda “**biomorf kod**” [1, 19] muhim ahamiyatga ega. O‘xshatishlarda biomorf kod orqali insonning deyarli barcha xususiyatlari aks ettirilishi mumkin: jasurlik – *burgutdek*, baquvvatlik – *ayiqdek*, mashaqqatli mehnat qilish – *itdek*, avramoq – *ilondek*. O‘zbek tilida salbiy munosabatni ifodalovchi kod – ilondir. Fauna guruhi vakillarining ko‘pini **ambivalent** etalonlar deb atash mumkin. Bo‘ri – hamla qilish ma’nosи ifodalanganda yirtqichligi tufayli salbiy baholansa, shu etalonlar vositasida baquvvatlik va mardlik xususiyati aks etishi bilan ijobiy konnotatsiya ko‘rsatadi[1,19]. “**Bo‘riday** shiddatli” – bir vaqtning o‘zida ham ijobiy ham salbiy konnotatsiya berishi mumkin, faqatgina uning ijobiy yoki salbiy baho ekanligini matndan anglashimiz mumkin.

Yuqorida ta’kidlangan zoonimlar o‘zbek mentalitetida ijobiy rol kasb etgani bilan boshqa xalq va mentalitetlarda turlicha ma’no qirralariga egadir. Masalan, “**qo‘y**” zoonimi mentalitetimizda “*qutbaraka*” timsoli bo‘lsa, rus mentalitetida bu – “*ahmoqlik va nodonlik*” ma’no qirralariga ega. Yoki “**eshak**” zoonimi kognitiv fikrlash tarzimizda – “*qaysarlik*”ni anglatsa, ingliz va fransuz tillatida bu zoonim – *ayyorlik, qo‘rqaqlik va yo o‘ziga ortiqcha ishonib ketish, maqtanchoqqlikdan tashqari odamning yana bir kamchiligi – ahmoqligini* ham bildiradi. Masalan, *Every ass likes to hear himself bray – har qanday eshak o‘zining hangrashini eshitishni yaxshi ko‘radi. Les ânes parlent latin – eshaklar lotin tilini yoqtirishadi* (boshqalarning maslahatiga quloq solishni istamaydigan ahmoqlarga nisbatan qo‘llanilgan) [3,18]. “**It**” zoonimi ko‘p hollarda salbiy ma’no ottenkasini

berishda qo'llaniladi va asosan, o'xshatish, maqol, matal va frazemalarda bunday holatlarning ko'p bora guvohi bo'lamiz. Asarda "itday quvib haydamoq" shaklida salbiy ma'no ifodalash maqsadida qo'llanilgan. Masalan, D.Baxronovaning "Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalarini" [4] monografiyasida "it" zoonimi salbiy ottenkada barcha madaniyatlarda qo'llanilishi, xususan, ispan madaniyati misolida keltiradi. "*Itning duosi qabul bo'lsa edi, osmondan suyak yog'ardi*", ya'ni xulqi buzuq odamlarning qarg'ishi qabul bo'lmasligi ochib berilgan.

Osmon jismlari va u bog'liq bo'lgan o'xshatish va qiyoslashlar qadimdan mavjud va u bugun ham tilimizda keng iste'molda. Muhammad Ali "Ulug' saltanat" asarida, aynan, XIV va XV asrlarni yaqqolroq aks ettirish va muhitga kitobxonni jalb qilish va his ettirish maqsadida bunday o'xshatishlardan unumli foydalangan.

Fitonimlar vositasida, asosan, asarda lashkar miqdori va kuch-qudratni ifodalashda "daraxt, yaproq va qo'ziqorin" o'xshatishlaridan keng foydalanilgan bo'lsa, "gul, g'uncha va novda" qiyoslari orqali ayollarning latofatini hamda qahramonlarning ruhiy kechinmalari o'z aksni topgan.

Diniy qarashlar bilan bog'liq o'xshatishlarda esa "hur, farishta, Jannat, iblis" kabi obrazlar

1.	<i>Jahongir Mirzoning xayollari chang'aroqqa borib urindi, undan o'tib erkin qushlardek bepoyon osmon qa'rлariga otildi.</i>	- <i>dek</i> affaksi asosida yaratilgan individual o'xshatish
2.	<i>Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg'alari tubida pinhon, sirtdan esa limmo-lim to'lib oqayotgan Jayxun singari sokin...</i>	" <i>singari</i> " o'xshatish vositasi orqali yasalgan
3.	<i>Birovlar shamol bo'ladi, ularga sir aytsang, og'zingdan yulib olib butun dunyoga yoyadi.</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
4.	<i>Chiroyli ekilgan daraxtlar, sarkardasini qarshi olgan navkarlarday saf tortishgancha, rang-barang gullar esa xushchaqchaq, ochilishib-sochilishgancha kutib olardi.</i>	- <i>gancha</i> affaksi asosida yaratilgan individual o'xshatish
5.	<i>Bilingizkim, iqbol niholi adolat va xayr-ehson bulog'idan suv ichmas erkan, ul baxtiyorlik mevasini tugmas, saodat soyasini bermas...</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
6.	<i>Shahzodaning beg'ubor kulgisi shaharning jazirama issiqda holsizlanib yotgan tuproq ko'chasiga bezakday taqildi.</i>	- <i>day</i> affaksi asosida yaratilgan individual o'xshatish

ishtirokida turg'un o'xshatishlardan foydalanilgan. Shu bilan birga, bu konseptda sinonimik qatorlardan ham mahorat bilan foydalanilgan.

Hur – farishta, hurliqo, malaksiymo, pari.

Jannat – bihisht.

Iblis – shaytoni la'yin, mal'un, kabi.

Badiiy asar yaratilishi jarayonida yozuvchi va ijodkorlar ikki xil o'xshatish tizimidan foydalanishadi. Biri individual o'xshatish bo'lsa, boshqasi turg'un o'xshatishdir.

1. **Individual** – muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar;

2. **Umumxalq yoki turg'un** (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi [5].

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini jalb qiladi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. Asarda keltirilgan quyidagi o'xshatishlar ham individual bo'lib, faqatgina Muhammad Ali ijodidagina uchraydi.

7.	<i>Kin-u adovat daryosining nahang balig 'i Zindachashm-oparday o'sha daryoning o'zida g'arq bo'ldi.</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
8.	<i>Janub tomonda maysazorlar oxirida qishloqlar ufq qoshiga tortilgan o'smaday chiroyli ko'zga tashlanadi.</i>	- day affiksi asosida yaratilgan individual o'xhatish
9.	<i>Quruq yog 'ochni ekib yaproq chiqishini kutib o'tiribdilar-a, tosh ustida gul o'stirmoqchilar-a valine'mat Sohibqiron!</i>	Izohlovchi va izohlanmish munosabati asosida
10.	<i>Sipohlar qumga sochilgan suvdek shaharga sochilib ketdilar.</i>	- dek affiksi asosida yaratilgan individual o'xhatish

Turg'un o'xhatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xhatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xhatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida ursiga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xhatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi [6].

1. Chirmovuqday chirmashmoq;
2. Majnunvor;
3. Dokadek oqargan;
4. Shirin suhbat;
5. Naq otning kallasi-ya;
6. Otilgan o'qdek;
7. Oyday jamoling;
8. Boshini sapchaday uzmoq, kabi.

Tilshunos olimlarimizning aksariyati turg'un o'xhatishlarni idiomalarga yaqin ekanligi yoki idioma maqomida bo'lishini, kishilar nutqida ko'p vaqtlar davomida faol qo'llanilganligi sababli turg'unlashib, mustahkamlanib qolishi, o'xhatish asosidagi obrazning o'zi bog'liq bo'lgan so'z bilan yaxlitlanib, qat'iy bog'lanib qolishini ta'kidlaydi. An'anaviy o'xhatishlar umummiliy madaniyatga xos bo'lib, barcha uchun tushunarli, tanish bo'lgan o'xhatishlardir. Turg'un o'xhatishlar tilda avvaldan mavjud bo'ladi va nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Dastavval, erkin ya'ni individual tarzda vujudga kelgan o'xhatishlar yillar davomida keng iste'molda bo'lganligi bois turg'unlashib qoladi. Shu sabab, o'xhatishlar tilshunosligimizda komparativ (**"compare"** inglizcha – *qiyoslamoq, solishtirmoq*) iboralar deb ham yuritiladi [7].

O'zbek tilidagi inson va uning a'zolari bilan bog'liq bo'lgan turg'un o'xhatishlar ham ma'noviy jihatdan

guruhlarga tasnif qilingan bo'lib [8,94-95], ular quyidagicha:

- a) *inson a'zolari bilan bog'liq bo'lgan o'xhatishlar*: Barchasi yo'lning ikki chetida zich ekilgan teraklarday g'oz turishibdi; Surx novdaday nozik qo'llarini...
- b) *insonning tashqi ko'rinishi bilan bog'liq o'xhatishlar*: Haybati sherday; Alpomish yanglig'.
- c) *insonning jismoniy xususiyati bilan bog'liq bo'lgan o'xhatishlar*: Shaxzoda cho'pday ozib ketgandi; Novcha erkaksabziga o'xshagan;
- d) *insonning ovozi bilan bog'liq o'xhatishlar*: Uning ovozi qop ichidan qovog'ari g'o'ng'illashiday eshitildi.
- e) *inson nutqi bilan bog'liq o'xhatishlar*: To'rg'ayday tili tutilib qoladi.
- f) *insonning xarakteri bilan bog'liq o'xhatishlar*: Bolalarday samimi; Temurbek ulkan daryo ekan, butun dolg'alari tubida pinhon, sirdan esa limmolim to'lib oqayotgan Jayxun singari sokin...
- g) *insonning holati bilan bog'liq bo'lgan o'xhatishlar*: Salqin tog' shamoli tekkanidan miyasining qopqog'i ochilib qolganday, rohat qildi; Shu paytgacha o'zini ignaning ustida o'tirganday his qilgan chopar...
- h) *insonning xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xhatishlar*: Chirmovuqday chirmashingiz; Elchini xuddi bozorda xurjunlarini yo'qotgan sho'rlik bozorchilarday qaytarib yuborishim mumkin edi-yu... Otilgan o'qdek.

XULOSA. Muxtasar qilib aytganda, Muhammad Ali individual o'xhatishlar yaratish mahoratini va turg'un o'xhatishlardan unumli foydalinish salohiyatini yuqorida keltirilgan misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Muhammad Ali o'z romanida qo'llagan paremiologik birliklari, metafora va o'xhatishlar orqali lingvomadaniy jihatdan o'zbek tilining naqadar serqirra ekanligini va turkiy tillarning lug'at boyligi jihatidan ustun

ekanligini, bir-birini takrorlamaydigan o‘xshatishlardan foydalanish orqali isbotlab beradi. O‘xshatishlarni qo‘llash jarayonida sinonimik qatorlardan unumli foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Har bir yaratilgan yangi o‘xshatish namunalari va har bir foydalanilgan turg‘un o‘xshatishlarda xalqning qadriyatlarini namoyon etish bilan birga, uning streotiplarini ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin. O‘xshatishlar ma’lum bir xalqning va millatning milliy-madaniy potensialini ochib berishda unumli foydalaniladigan til birligi desak ham, xato bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дис. (Phd) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2020. – Б.13.
2. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 2015, Б.94-95.
3. Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидағи образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект). Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси.
4. Baxronova D.K. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Fil.fan.dok... dis. -Toshkent: TURON-IQBOL nashriyoti, 2021.
5. Маҳмудов Н., Худайберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Маънавият, 2013. –Б. 5.
6. О‘xshatishlarning til va nutqdagi o‘rni /Til tilsimi tadqiqi. –Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – В. 162.
7. Xudayarova S. Turg‘un va erkin o‘xshatishlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Maqola “Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli, masofaviy onlayn konferensiya.
8. Xudoberganova D. “Matnning antroposentrik tadqiqi” O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti. Toshkent. – 2013, bet-94-95.

